

PALINDROMLAR YOXUD QALB SO‘ZLARI

Norsafarova Nilufar Boybo‘ri qizi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada tilimizdagi palindromlar, ularning aqliy rivojlanish jarayonida tutgan ahamiyati, bolalardagi ijodkorlikni oshirish, fikrni ravon ifoda etishdagi o‘rni haqidagi ko‘plab muhim ma‘lumotlar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: palindrom, satr, harf, so‘z, bo‘shliq, konsentratsiya, lingvistika, adabiy, raqamli palindrom, ko‘nikma, ketma-ketlik, innovatsiya.

PALINDROMES OR HEART WORDS

Norsafarova Nilufar daughter Boybori

Abstract: This article contains a lot of information about palindromes in our language, their importance in the process of mental development, increasing creativity in children, and their role in fluent expression of thought.

Keywords: palindrome, string, letter, word, space, concentration, linguistics, literary, numerical palindrome, skill, sequence, innovation.

ПАЛИНДРОМЫ ИЛИ СЕРДЕЧНЫЕ СЛОВА

Норсафарова Нилуфар дочь Бойбори.

Аннотация:

В этой статье содержится много информации о палиндромах в нашем языке, значении документа в процессе умственного письма, коррекции творчества в речи, его роли в беглом выражении мысли.

Ключевые слова: палиндром, строка, буква, слово, пробел, концентрация, языкознание, литература, числовой палиндром, навык, последовательность.

KIRISH

Palindromlar haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo, mazkur so‘zning lug‘aviy ma‘nosiga alohida e‘tibor berishimiz lozim. Yunon tilidan tarjima qilinganda



“palindrom” tushunchasi – “palindramon” soʻzidan olingan boʻlib, “orqaga qarab yugurish” degan maʼnoni anglatadi. Palindrom soʻz, matn yoki soʻz birikmasi hamda raqamlar teskari tartibda oʻqilganda, toʻgʻri harflar ketma-ketligidagi kabi eshitiladi va oʻqiladi.

Palindromlarning kelib chiqish tarixi uzoqqa borib taqaladi. Hozirgi kunimizda koʻplab insonlar palindrom hodisasi bilan yetarlicha tanish emas. Vaholanki dunyoning barcha tillarida palindromlar mavjud. Dunyo miqyosida bunday iboralar taniqli shaxslar tomonidan berilgan turli xil nomlar hamda taʼriflar bilan ajralib turadi: Semyon Kirsanov “oʻzini oʻzi ritm”, Velimir Xlebnikov uni “inversiya”, Vladimir Ribinskiy “amfritma” deb ataydilar. Palindromning asoschisi Rim shoiri Porfiri Optazian sanaladi.

Aslida palindromlarga qanday soʻzlar yoxud birikmalar misol boʻla oladi va ularni qanday aniqlash mumkin? Avvalo, palindromlar har doim ham tilimizdagi muhim birlik boʻlishi shart emas. Masalan, xalq shevalaridagi soʻzlar ham palindromga misol boʻla oladi. Biz buni aynan oʻzbek adabiyoti xazinasini boʻlmish xalq dostonlarida kuzatib, tahlil qilishga harakat qildik. Aynan “Alpomish” dostoni qoʻllangan soʻzlarda koʻplab palindromlar mavjud ekanligiga amin boʻldik:

1. **Kuchuk** - itning bolasi (Matnda katta it maʼnosida.):

“Har tarafda **kuchuk** tortib talashdi,

Kuchuklar oldinda oʻrtaga tushdi.”

2. **Kichik** - a) kichik yoshdagi kishi; b) martabasi pastroq boʻlgan kishi:

“Ulugʻ katta-**kichik** sendan soʻrayin

Qaysi yurtdan kepti bunda bilayin.”

3. **Ini** - tugʻishgan uka:

“Mening davlatimda yolgʻiz **inim** Boysari baxilga chiqib ketmasin, - deb koʻnglida:

“Boysari ukam menga zakot bersa kerak ekan”, - deb oʻyladi.”

4. **Aza** ochmoq - motam, taʼziya. Vafot etgan kishiga atab qilinadigan motam marosimi:

“**Aza** bilan bir yil oʻtdi, bir yildan keyin yil oshi berib, azasini ochdi.”

5. **Choch** - soch:

“Qizining boshida taralgan **chochi**,

Qorajon ham yigitlarning meʼroji.”

Mazkur dostonda qoʻllangan ushbu birliklar shevaga oid boʻlgan palindromlarning yorqin misol boʻla oladi.



Bundan tashqari palindromlar shunday g'ayrioddiy so'zlarki, ularni har kim o'z nutqida ishlatadi, lekin ularning aynan palindromlar ekanligiga diqqat qilmaydi. Bunday so'zlardan hattoki buyuk bobokalonimiz, ona tilimiz asoschilaridan biri bo'lmish buyuk shoir Alisher Navoiy bobomiz ham eng katta va mashhur asarlari bo'lgan "Xamsa" dostonida foydalanganlar. Misol uchun, "Xamsa" asarining eng so'nggi dostoni bo'lmish "Saddi Iskandariy"da bunga guvoh bo'lamiz:

"Demak jom ila mayki, nazmi ravon,

Erur ko'k elin ayladi notavon."

Har qanday harflar ketma-ketligi palindromni hosil qilmaydi. Eng asosiysi, so'zning boshida va oxirida bir xil harflar bo'lishi lozim. Bu esa palindromlarni aniqlashning eng asosiy mezoni, sharti hisoblanadi. Masalan, **qovoq** so'zi. Basharti "leksika" so'zidagi kabi birinchi hamda oxirgi harflar bir-biriga ekvivalent bo'lmasa, so'z palindrom sifatida shakllanmaydi. Mana shu kabi qonuniyatlar so'zning palindrom yoki palindrom emasligini aniqlashga yordam beradi. Agarda so'zning birinchi va oxirgi tovushlari bir xil bo'lmasa, ushbu so'zning palindrom emasligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Palindrom so'zlarning yana bir oltin qoidasi sifatida shuni keltira olamizki, bunday so'zlar minimal 3ta harfdan tashkil topishi lozim: tut, bob, tot, mum, kek, tit...

Palindromlar ham o'z navbatida bir qancha turlarga ajraladi: *she'riy palindromlar*, *raqamli palindromlar*, *bitta so'zli palindromlar* hamda *iboraviy palindromlar*. Xo'sh, bu kabi so'zlar bizga nima uchun kerak? U bizga nima beradi? Foydali jihatlari nimada?

Palindromlar insonning lingvistik bilimlarini kengaytiradi. Bunday so'zlar orqali inson o'z fikrini yaxshiroq ifoda eta oladi, o'qiyotgan matnini tez anglay oladi, so'z boyligi ham kengayadi. Ayniqsa, ular yosh bolalarda zehn hamda zukkolikning oshishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bitta so'zli palindromlar misollar ko'rib chiqamiz:

Pop, esse, kiyik, Aziza, ata, non, dod, aka, Malayalam (Hindistonning janubi-g'arbiy tili), qoq, bob, testset, tot, tit, mum, lol, kuchuk, yoy, ko'k, tut, Shosh, Choch, quruq, qovoq, kek, yo'y, amma, radar, alla, an ava boshqalar.

Raqamli palindromlar esa matematika va boshqa aniq fanlardagi raqamlar va formulalarda aks etadi. Palindrom raqamlar nosimmetrik yozuvga ega bo'lib, ular o'ngdan chapga qarab o'qilganda ham xuddi chapdan o'ngga qarab o'qilgandagi kabi ma'no hosil qiladi. Misol uchun:

3003, 2112, 44, 55, 4004, 101, 202, 1551, 303, 404, 232.



Bundan tashqari, tilimizda shunday sonlar borki, ularning o‘zlari palindrom bo‘lmasa ham yig‘indisi palindrom bo‘lishi mumkin: $56+65=121$.

Shuningdek, palindrom sonlarning yig‘indisi ham palindrom bo‘lishi kuzatiladi: $44+33=77$; $11+22=33$.

Yana shunday sonlar borki, o‘zi palindrom bo‘lmasa ham sonning kvadrat darajasi palindrom bo‘lishi mumkin: $26^2=676$.

O‘z navbatida palindrom o‘yinlari ham mavjud. Bunday adabiy o‘yinlar palindromistlar tomonidan shakllanadi. Palindromistlar deb palindromlarni ishlab chiqarishga qodir insonlar tushuniladi.

XULOSA

Ushbu maqoladan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, palindrom so‘zlar va birliklar barcha insonlarda, ayniqsa, yosh bolalarda zukkolikning va fikrlash tezligining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi hamda olamni tushunishni osonlashtirib, lingvistik bilimlarini kengaytiradi. Palindromlar yana shunday xususiyatga egaki, ular insonlar bir masala ustida ish olib borganlarida masalaning barcha jihatlariga e‘tibor berishlariga ko‘maklashuvchi asosiy mezon sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. T.Mirzayev, J.Eshonqulov, S.Fidokor “Alpomish” dostonining izohli lug‘ati “Emus-Press-media” Toshkent. - 2007. (7, 44, 52, 53, 112-betlar)
3. D. Yusupova “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri)” Toshkent. - 2016. (167-bet.)

